

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11069652>

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING IFODALI O‘QISHGA O‘RGATISHDA METODIK TAVSIYALARI

**Narziyeva Laylo**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Bu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishda nimalarga e‘tibor berilishi va qaysi usullardan foydalanish haqida ma‘lumotlar borma‘lumotlar bor. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqola oxirida xulosa berilgan.*

**Kalit so‘zilar:** *Ifodali o‘qish, so‘z, bo‘g‘in, talaffuz, nutq.*

Boshlang‘ich sinflarda ifodali o‘qishni o‘stirish bevosita savod o‘rgatish bilan bog‘liq. Ifodali o‘qishni o‘stirish uchun sinfdan tashqari ishlarda ifodali o‘qish darslarini ko‘paytirish lozim. Bu darslarda Xudoyberdi To‘xtaboyev, Anvar Obidjon, Abdulla Qahhor kabi yozuvchilar ijodidagi hikoya, she‘r, ertaklardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari xalq og‘zaki ijodi namunalaridn ham foydalinishimiz mumkin. Masalan, xalq dostonlari, xalq ertaklaridan foydalanish mumkin. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo‘ljallangan saboqni sabr-toqat bilan tinglay olmaydilar. Shu tufayli sinflarda ta‘lim-tarbiya vazifalari, asosan o‘yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o‘qish orqali amalga oshiriladi. Ifodali o‘qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o‘zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o‘qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o‘qish darslari o‘quvchilarning dunyoqarashini o‘stiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi, adabiyotga

qiziqishini o‘stiradi. O‘qish darslarida o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatishning, asosan, ikki yo‘li mavjud:

1. Dars jarayonida turli matn xarakteridan kelib chiqib, o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish;

2. O‘qish darslarini qisqartirib sinfdan tashqari ishlar darslarida ham ifodali o‘qish darslari tashkil etish.

O‘qishga o‘rgatishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish;
- o‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish.

Ifodali o‘qish shartlari va tamoyillari:

- o‘qish mavzulari va yod olish uchun asarlar;
- o‘qish ko‘nikmasi va malakalari;
- matn va bog‘lanishli og‘zaki nutq ustida ishlash;
- sinfdan tashqari o‘qish.

O‘qish darslarini qiziqarli o‘tish uchun badiiy tahlil ham alohida ahamiyatga ega. Asar qahramonlaridan salbiy va ijobiy qahramonlarga ajratish, ularning fikrlarini so‘rash kabi usullardan foydalanish mumkin. Bolalarni o‘qishga o‘rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko‘riladi. Buning uchun o‘quvchi madaniy-maishiy va boshqa sohadagi turli korxonalariga sayohatlar uyushtiradi, tabiat hodisalari yuzasidan kuzatishlarni tashkil etadi. O‘qish darslarini bolalarda go‘zallikka muhabbat uyg‘otadigan, poklik tuyg‘ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o‘tkirlashtiradigan, aqlni, fahm-farosatni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o‘stiradigan musiqa va tasviriy san‘at fanlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi kerak.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida badiiy tahlilni ham o‘rgatishdan tashqari sahna ko‘rinishlari orqali ham bolalarning qiziqishini orttirishi mumkin. Bu bolalarning obrazli fikrlashiga yordam beradi.

Sinfdan tashqari o‘qish dasturning mazmuniga ko‘ra ta‘limning har bir bosqichida ikki asosiy bo‘limga ajratiladi: Birinchi bosqichda o‘qish doirasi, ya‘ni o‘qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o‘qish bilan tanishtirish yuzasidan

o'quvchilarga ko'rsatma beriladi. Keyingi bosqichda bilim, ko'nikma, malakalarni baholash kabilarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan o'quvchilar so'zlarni, harflarni to'g'ri talaffuz qilishi va bo'g'inlarga to'g'ri ajrata olishi zarur. O'quvchilarni buning uchun kitobni sevishga, kitob o'qishga undashimiz kerak. O'quvchilar qancha ko'p kitob o'qisa ularning savodi oshadi, ifodali o'qish ko'nikmasi rivojlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Oripov. B. T "Darslarning samaradorligini oshirish yo'llari" Toshkent 1983-yil
2. Rahmonova. Ye. R. Razzoqov. D. N "Pedagogik texnologiyalar" fanidan o'quv qo'llanma T.: 2007 yil